

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA OBRAZ MASALASI (“SHARPA” HIKOYASI MISOLIDA)

Maxmudova Maftuna Muqimjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning “Sharpa” hikoyasidagi obrazlar tizimi, ularning psixologik va falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Hikoyadagi markaziy obraz Sharpa qahramonning ichki qo‘rquvi, shubha va ruhiy ziddiyatini ifodalaydi. Qush esa qahramonning ichki qudrati, umidi va ruhiy mustahkamligini ramzlaydi. Hikoya inson ruhining murakkab qatlamlarini, ichki kurash jarayonini va o‘zlikni anglashni badiiy va falsafiy shaklda ochib beradi. Asarda insonning o‘z qo‘rquviga qarshi kurashi, uni yengishi yoki unga mag‘lub bo‘lishi kabi masalalar majoziy tarzda tasvirlangan bo‘lib, hikoya nafaqat psixologik, balki falsafiy qatlam bilan ham boyitilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy obraz, metaforiklik, assotsiativlik, psixologizm, ramz, shaxsiy “men”, ruhiy ziddiyat.

Badiiy obraz adabiy asarning eng muhim unsurlaridan biri bo‘lib, u san’atkorning dunyoqarashi, ideal tasavvurlari va real hayot haqidagi mulohazalarining badiiy ko‘rinishidir. Olimlar, xususan, Izzat Sulton, Abdulla Ulug‘ov, Dilmurod Quronov kabi adabiyotshunoslar obrazni insonning xarakteri, ruhiy holati, ma’naviy mohiyatini ifodalovchi badiiy model sifatida talqin qilganlar.

Adabiyotshunoslikda obrazning asosiy xususiyatlari sifatida:

- Konkretnlik — obrazning aniq shaxs sifatida gavdalanishi
- Metaforiklik — obrazning biror g‘oya yoki holatga ramz bo‘lib xizmat qilishi
- Assotsiativlik — obraz orqali o‘quvchida tug‘iladigan ma’naviy-ruhiy uyg‘oqlik kabi mezonlar e’tirof etiladi.

Nazar Eshonqul ijodida psixologik tahlil va ruhiy kechinmalarni badiiy talqin qilish, insonning ichki olamini majozlar orqali ochib berish alohida o‘rin tutadi. “Sharpa” hikoyasi esa yozuvchining ana shu ruhiy tahlil mahoratini yaqqol namoyon etadi. Asarda voqelikdan ko‘ra ko‘proq insonning o‘zi bilan olishuvi, ichki qo‘rquvlarining shakllanishi va ularga taslim bo‘lish jarayoni badiiy-obrazli tarzda aks ettiriladi. Hikoyada markaziy obraz Sharpa bo‘lib, u mavhum, ko‘zga ko‘rinmas, ammo mavjudligi kishini izdan chiqaruvchi kuch sifatida talqin etilgan.

Asar qahramoni dastlab sharpaning mavjudligiga ishonmaydi, uni tasavvur yoki charchoq natijasi deb hisoblaydi. Ammo vaqt o‘tishi bilan u sharpaning nafaqat mavjud, balki tobora kuchayib borayotgan ta‘qibchiga aylanganini his qiladi. Bu holat qahramon ruhiyatidagi qo‘rquvning asta-sekin kuchayishi va uning ongini egallab borayotganini ko‘rsatadi. Sharpa xonaga tashrif buyuruvchi har qanday mehmondan yashirinishga qodir makkor mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu esa qo‘rquvning insonning yolg‘iz qolgan lahzalarida faollashishi, ko‘pchilik ichida esa chekinishini ifodalaydi. Demak, Sharpa bu tashqi emas, balki ichki dushman bo‘lib, qahramonning o‘z hayoti va fikrlari bilan yolg‘iz qolgan pallalarda kuchayib boradigan qo‘rquvni anglatadi. Hikoyaning eng muhim jihati shundaki, yozuvchi sharpani aniq shaklga keltirmaydi. U faqat seziladi, faqat his qilinadi. Bu metod qahramonning ruhiy holatini yoritishda juda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sharpa qahramonning xayoli, uning ongida ildiz otgan vahima va ishonchsizlikning shakliga aylanadi. Qahramon qurol ko‘tarib izidan quvadi, biroq uni hech qachon aniq ko‘ra olmaydi. Bu esa odamning o‘z qo‘rquviga qarshi kurashi qanchalik samarasiz bo‘lishi mumkinligini badiiy ifodalaydi.

Asarda qush obrazi ham juda muhim ramz sifatida qo‘llangan. Qahramon devorlarga qushlar chizadi, xonani qush surati bilan to‘ldiradi. Bu obraz ozodlik, erkinlik va ruhiy yengillik ramzidir. Qushlar qahramonning sharpaga qarshi turish, o‘zini asrab qolish uchun topgan ichki qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, devorga chizilgan ulkan qush obrazi uning eng katta umidi va eng katta qarshilik kuchidir. Ammo sharpaning bu qushni halok qilishi — umidning, ishonchning va ichki kuchning sindirilishidan dalolat

beradi. Qahramonning ruhiy mustahkamligi sinadi, u sharpadan ustun kela olmasligini anglay boshlaydi.

Asardagi eng keskin burilish qahramon yaqin do'stining "Sharpa — sensan" degan so'zi bilan yuz beradi. Bu jumla hikoyaning asosiy g'oyaviy qatlamini ochib beradi: insonni eng ko'p qo'rquvga soladigan narsa — bu o'zining ichki dunyosi va o'z-o'zi bilan kurasha olmaslikdir. Sharpa tashqi dushman emas, balki ongning qorong'i burchaklarida yashovchi vahima, shubha, o'zini tanimaslik va ichki bo'shliqdir. Bu jihat Nazar Eshonqulning psixologik yondashuvini yanada teranlashtiradi. Asarning yakuni qahramonning oxirgi mag'lubiyatini tasvirlaydi: u xonaga yorug'lik, osmon, quyosh chizib, "sharpani yengdim" deb o'ylaydi, ammo Sharpa yana qaytadi. Quyoshni bo'yab o'chiradi, osmonni qorong'ilikka botiradi. Bu tasvir qahramonning vaqtinchalik yengilishi emas, balki uning butun umr davom etadigan ichki ziddiyat va qo'rquv bilan yashashga mahkumligini anglatadi.

"Sharpa" hikoyasidagi obrazlar tizimi inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib beradi. Sharpa — qo'rquv, beqarorlik va ruhiy bosimning personifikatsiyasi; qush — umid va erkinlik; qorong'ilik esa ruhiy iztirob va turg'unlik timsolidir. Nazar Eshonqul ana shu obrazlar orqali o'quvchini insonning o'z-o'zi bilan kurash jarayoniga jalb qiladi. Asar insonning o'z qo'rquviga qarshi kurashishi, uni yengishi yoki unga yengilishi mumkinligini majoziy shaklda ko'rsatadi. Eng muhimi, hikoya shuni anglatadiki, odamning eng katta dushmani — u o'zi yaratgan qo'rquvi. Shu qo'rquvdan qutulishning yagona yo'li esa ichki yorug'likni va ichki quvvatni yo'qotmaslikdir.

Nazar Eshonqulning murakkab obrazlar tizimi asarni nafaqat psixologik, balki falsafiy qatlam bilan ham boyitadi. Hikoya inson mavjudligining mohiyati, ruhiy muvozanat, o'zlikni anglash va ichki zulmatdan qutulish kabi mavzularni o'rtaga tashlaydi. Shu bois "Sharpa" nafaqat qo'rquv haqidagi hikoya, balki inson ruhining eng og'ir va eng yashirin kechinmalarini yorituvchi falsafiy-badiiy asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazar Eshonqul . Sharpa. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2005.

2. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.
3. [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Adabiyotshunoslik%20nazariyasi%20\(Hotam%20Umurov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Adabiyotshunoslik%20nazariyasi%20(Hotam%20Umurov).pdf)
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2005.